



O‘ZBEK XOTIN-QIZLARI ISMLARIDA O‘ZLASHMA QATLAMNING O‘RNI

Djurayeva Yulduz G‘aybullayevna,
Qarshi davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243826>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xotin-qizlari antroponimiyasi va unda o‘z qatlam hamda o‘zlashma qatlamga oid ismlar yuzasidan fikr yuritildi. O‘zlashma qatlamga oid o‘zbek xotin-qizlari ismlari va ularning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari izohlandi. Fors-tojikcha, arabcha hamda rus, hind, mug‘ul, qadimgi pahlaviy tillaridan o‘zlashgan ismlardan namunalar tahlil qilindi. Shuningdek, qo‘shma so‘z shaklidagi o‘zbekch+fors-tojikcha, o‘zbekcha+arabcha, arabcha+fors-tojikcha tarkibli ismlarning o‘zbek xotin-qizlari ismlari tizimida tutgan o‘rni yuzasidan mulohaza yuritiladi. Bugungi kunda o‘zbek xotin-qizlari ismlari tizimida o‘zlashma qatlamning o‘rni yuzasidan ma‘lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: Leksik qatlam, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, umumturkiy qatlam, antroponim, antroponimiya, antroponimika, xotin-qizlar ismlari, qadimiy turkiy ismlar qatlami, arabcha ismlar, fors-tojikcha ismlar.

O‘zbek tilshunosligida “lug‘aviy qatlam” tushunchasi, uning til leksik sathidagi mohiyati, lug‘aviy qatlamlar tasnifi, lug‘aviy qatlamlarning yuzaga kelishida lisoniy va nolisoniy omillarning o‘rni, lug‘aviy qatlamning unga yondosh hodisalardan farqi va o‘zbek tili leksik sistemasidagi lug‘aviy qatlam tiplari monografik tarzda tadqiq qilingan [1:175].

Atoqli nomshunos olim E.Begmatov o‘zbek tili antroponimiyasi tizimida uchta antroponimik qatlamni ajratadi:

1. Qadimiy turkiy ismlar qatlami.
2. Fors-tojikcha ismlar qatlami.
3. Arabcha ismlar qatlami.

Antroponimlar ham boshqa leksik birliklar singari lug‘aviy boyligimizning muhim qismidir. Antroponimlar, ya’ni kishi ismlari, familiyalari, otaismlari, taxallus va laqablari ham uzoq tarixga ega. Kishi ismlari qadimgi davrlardan beri mavjud bo‘lib, dastlab faqat umumturkiy qatlamga oid so‘zlardan hosil qilingan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan kishi ismlari ham, asosan, umumturkiy qatlamga oid so‘zlardan hosil qilingan ismlardir. Asarda Qaz – Afrosiyobning qizining ismi, Kumush – cho‘ri qiz ismi,

Har bir xalq ism tanlashda o‘z ona tilining so‘z boyligi, imkoniyatlariga tayangan. Ism tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan yasaladi. Lekin hech bir tilning lug‘aviy boyligi faqat o‘zining gina iborat bo‘lib qolmaydi. Muayyan hududda qadimdan qo‘shni bo‘lib yashagan urug‘ va qabilalar, elatlar, xalqlar turli usullarda

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



o‘zaro munosabatda bo‘lishgan. Siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, diniy-etnik aloqalar bu xalqlarning tillariga ham ta’sir etgan. Bir tildan ikkinchi tilga so‘zlarning, atoqli otlarning kirib kelishi va o‘zlashishi odatdagi hol bo‘lgan [2:596]. Shu boisdan ham hozirgi o‘zbek tilidagi xotin-qizlar ismlarining katta qismini o‘zlashma ismlar tashkil etadi. [Dilbar, Gulnoz, – fors-tojikcha; Anvara, Komila – arabcha]. Atoqli nomshunos olim E. Begmatov bu holatni quyidagicha izohlaydi: O‘zbek tiliga o‘zga tillardan oddiy so‘zlargina emas, balki atoqli otlar ham kirib keldi. Hozirgi o‘zbek tilidagi bir qancha ismlar asli arabcha yoki forscha, qisman mo‘g‘ulcha nomlardir [2:601]. O‘zlashma ismlarning ba’zilari tilimizga ism sifatida kirib kelgan bo‘lsa, ayrimlari dastlab apellyativ leksika sifatida o‘zlashgan va keyin undan kishi ismlari yaratilgan. Arablar istilosidan keyin boshqa sohalar kabi kishi ismlari tarkibida ham arabcha ismlar paydo bo‘la boshladi. Islom dini bilan birgalikda ko‘plab arabiy ismlar ham kirib keldi. O‘zga tillardan so‘zlarning o‘zlashishi ko‘pgina sohalar singari o‘zbek antroponimiyasini ham chetlab o‘tmadi. Ayniqsa, turli istilolar natijasida, jamiyatning rivojlanish, o‘zgarish davrida so‘z o‘zlashtirish avjiga chiqdi. Dastlab arablar istilosi, so‘ng mo‘g‘ullar bosqini xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Bunday jarayonlar xalqlar o‘rtasida o‘zaro madaniy aloqalar shakllandi. Natijada, bir millatdan boshqa millatga turli so‘zlar, urf-odatlar va, hattoki, ismlar ham kirib keldi. Ayniqsa, arablar istilosi va undan keying davrlarda islom dini, islom tili – arab tili, islom madaniyati va ma’rifatining O‘rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi natijasida juda ko‘plab so‘zlar, atoqli otlar bu hududda yashovchi xalqlar tomonidan o‘zlashtirildi [7:215].

O‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan ismlarni tahlil qilar ekanmiz, erkaklar ismining ayollar ismiga nisbatan miqdoran ancha ortiq ekanligining guvohi bo‘ldik. Arab tilidan o‘zlashgan erkaklar ismlarining aksariyati Alloh nomi bilan, shuningdek, payg‘ambarimiz ismlari bilan bog‘liq ismlardir. Masalan, Abdurahmon, Abduazim, Abdurahim, Abdusattor kabi. Bu ismlarning barchasi Allohga bandalikni ifoda etuvchi ismlardir. Xotin-qizlar ismlari esa kamroq. Masalan, Azima, Rahima. Payg‘ambarimiz ismlari bilan bog‘liq erkaklar ismlari ham anchagina. Masalan, Muhammadamin, Muhammadali, Muhammadyusuf, Muhammadsodiq kabi. Qizlar ismlarida esa faqat Muhammadiya va Matniso // Muhammadniso ismlari qayd etilgan. Xotin-qizlar ismlaridan, asosan, Payg‘ambarimizning rafiqalari [s.a.v], qizlari, sahobalarining umr yo‘ldoshlari ismlari mavjud. Masalan, Xadicha, Oysha, Zaynab, Fotima kabi. E. Begmatovning “O‘zbek ismlari izohi” lug‘atidan 4987 ta xotin-qizlar ismi ajratib chiqildi. Shundan 1328 ta ism arabcha ismlardir. Arab tilidan ko‘plab apellyativ leksemalarning o‘zlashishi natijasida ulardan atoqli otlar, ya’ni xotin-qizlar



ismlari yasalgan. Arab tiliga mansub qizlar ismi tahlil qilinganda eng ko‘p ism M harfi bilan boshlanuvchi ismlar ekanligining guvohi bo‘ldik. E.Begmatov lug‘atida 285 ta M harfi bilan boshlanuvchi ismlar qayd etilgan.

Masalan, **MARHAMAT** – Allohning lutfi, iltifoti; shavkati. Allohning marhamati ila ato etilgan qiz [2:211]; **MATLUBA** – so‘rab, iltijo qilib erishilgan; xohlangan, orzu qilingan qiz [2:213]. **MAVLUDA** – muqaddas kunda tug‘ilgan qiz; tug‘ilgan, dunyoga kelgan [2:198]. **MA‘RIFAT** – bilimli, idrokli qiz [2:216]. **MUBORAK** – duo olgan, omadli, baxtli, e‘zozli [2:251]. **MUZAYYANA** – bezangan, ziynatlangan, orasta kabi.[2:252] Bu ismlar orasida **MUXBIRA** – matbuotchi [jurnalist] qiz [2:261] **MUXTORIYAT** – erkin, mustaqil [2:262] kabi ismlar XX asrda ism sifatida shakllandi.

O‘zbek tili antroponimlarining lug‘aviy tarkibida tojik tilidan o‘zlashgan ismlar salmoqli qatlamni tashkil qiladi. Bu qatlam o‘zbek tiliga uzoq o‘tmishdan yaqin vaqtlargacha o‘zbek va tojik xalqlarining yaqin qo‘shnichilik munosabatlari, ikki xalq orasidagi bolaga ism berish udumlarining mushtarak tomonlarga egaligi tufayli kirib kelgan. Shu bilan birga, ba‘zi ismlarni fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashma leksema sifatida olingan turdosh so‘zlardan o‘zbeklar o‘zi hosil qilgan bo‘lishi mumkin [3:24].

E.Begmatovning lug‘atida 991 ta fors-tojik tiliga mansub xotin-qizlar ismi qayd etilganligi aniqlandi. Bu ismlarning aksariyati tilimizda apellyativ leksika sifatida mavjud bo‘lib, keyingi bosqichda ulardan kishi ismlari yaratilgan. Masalan: **CHASHMA** – hayoti buloq suvidek musaffo hamda davomli bo‘lsin [4:479]. **SHIRIN** – totli, chuchuk, lazzatli; aziz, yoqimli, suyukli [2:494]. **ZEBO** – ko‘rkam, chiroyli; go‘zal husn sohibi [2:150]. **POKIZA** – toza, ozoda, begunoh, ma’suma [2:340]. **OZODA** – erkin, hur; baxtli, baxtiyor yoki toza, pokiza, begunoh. Ba‘zi manbalarda saxiy, oqko‘ngil deb izohlanadi [2:305]. **GULSHAN** – umri gulzordek obod, ziynatli bo‘lsin; shod-xurram bo‘lib o‘ssin [2:103]. **DILDOR** – dildan sevilgan, chin muhabbat sohibasi, dilni rom qiluvchi yoki rahmdil, jasur, dovyurak [2:113].

Bundan tashqari, mavjud xotin-qizlar ismlarining katta qismini qo‘sh motivli, ya‘ni qo‘shma so‘z shaklidagi ismlar tashkil etadi. Bunday ismlarni o‘zbekcha+fors-tojikcha [Dilyayra – ko‘ngli yayrab, baxtiyor bo‘lib o‘ssin yoki ko‘ngilni yayratuvchi, dilkash qiz [2:114]; Gulbeka – beklar naslidan bo‘lgan guldek go‘zal qiz [2:93]], arabcha + o‘zbekcha [Asalbeka // Asalbika – beklar avlodidan bo‘lgan boldek shirin qiz [2:36]; Dunyogo‘zal – olamdagi eng zebo qiz, tengsiz suluv ayol [2:117], arabcha+ fors-tojikcha [Ilmijahon – dunyo bilimlarini egallagan; dono,



donishmand qiz [2:163]; Mahbubjahon – olamdagi eng qadrli, e’zozli do’st, jahondagi eng suyuqli qiz [2:220]] ismlar tarzida guruhlashimiz mumkin. Bu shakldagi ismlarni o‘zbek antroponimlarini genetik-etimologik manbasi jihatidan tasnif qilgan F.Rajabov “gibrid antroponimlar” [6:52] deb nomlagan.

E.Begmatovning “O‘zbek ismlari izohi” lug‘atida qayd etilgan xotin-qizlar ismlarining bir qismini rus, mug‘ul, hind, qadimgi yahudiy, qadimgi sug‘d, yunon tili bilan bog‘liq ismlar tashkil etadi. Masalan, Rumiya [a.-yun.] – Rum elining qizi, Rum farzandi [2:353]; Shoshiya [sug‘.] – topib olingan qiz yoki ozod, hur qiz yoxud Shosh [shahar] farzandi yoxud yomon, iflos qiz. Keyingi ma’no bolaga ko‘z tegmasin degan maqsadni ifodalaydi [2:503]; Ulug‘sora [o‘z. -qad.yah.] – tanlangan, saralangan, ulug‘ nasabli, e’zozli qiz [2:444]; Humo, Humoy [f.< pahl.]– Humo afsonaviy qush bo‘lib, uning soyasi tushgan odam baxtli va davlatli bo‘ladi, deyilgan rivoyat bor yoki jannat qushi, baxt va davlat keltiruvchi qush [2:579]; Noringul [mo‘g‘.-f.] – nozli, zarif gul [2:293]; Nilufar [hind.] – nilufar [savsan]o‘simligidek chiroyli, zebo qiz [2:287]; Mayniso [rus.<lot.-a.] – may oyida tug‘ilgan qiz yoki ko‘klam qizi [2:202]. E.Begmatov lug‘atiga kiritilmagan Tamara, Oksana, Larisa, Venera kabi ismlar ham o‘zbek antroponimiyasiga rus tili orqali kirib kelgan ismlar hisoblanadi.

Umuman olganda, ismlar kishilarni bir-biridan ajratish uchun tanlanadi. Shunday ekan, farzandlarimizga bir xil ismlar qo‘yishdan qochishimiz lozim. Zero, o‘zbek ismlarining boy leksik qatlami mavjud. Ismlar xazinasining umrboqiyiligini ta’minlash uchun harakat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985.– В.174-176.
2. Бегматов Э. А. Ўзбек исмлари изоҳи.– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2016. – 608 б.
3. Бегматов Э. А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.– 264 б.
4. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Fan 1991. – 206 б.
5. Бегматов Э.А. Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: O‘zbekiston, 2014. – Б. 173.
6. Jo‘rayeva. Y. G‘.Xotin-qizlar ismlarining istak va tasviriy motivlar asosida nomlanishi // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари. – Toshkent, 2023, 1/10, – В. 214-216.
7. Rajabov F.U. O‘zbek onomastikasi. – Qarshi: “Intellekt” nashriyoti, 2023. – В.